

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 6
ISSUE 1 2026

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

6-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
ТОМ-6, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-6, ISSUE-1



TOSHKENT - 2026



ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2026-1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

MIRZAYEV IBODULLA
f.f.d., professor (O'zbekiston)
МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
MIRZAYEV IBODULLA
DSc, professor (Uzbekistan)

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:**

JABBOROV NURBOY
f.f.d., professor (O'zbekiston)
ЖАББОРОВ НУРБОЙ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
JABBOROV NURBOY
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

Muhiddinov Muslihiddin
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilorom Salohiy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Sodiqov Qosimjon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Binnatova Almaz Ulvi
f.f.d., professor (Ozarbayjon)
To'xliyev Boqijon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shodmonov Nafas
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Asadov Maqsud
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Yo'ldoshev Qozoqboy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Jo'raqulov Uzoq
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Funda Toprak
f.f.d., professor (Turkiya)
Nabiulina Guzal
f.f.d., professor (Tatariston)
Yusupova Dilnavoz
DSc, professor (O'zbekiston)
Sirojiddin Xo'jaqulov
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Rahim Ibrohim
f.f.d., professor (Afg'oniston)
Turobov Abdurahim
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhitdinova Badia
DSc, professor (O'zbekiston)
Muhammadiyev Ahadjon
DSc, dotsent (O'zbekiston)
Suvonova Jumagul
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatilla
y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)
Abdullayeva Albina
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Nurova Gulchehra
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Sultanov Tulkin
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Ubaydullayev Normuhammad
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Ruzmanova Roxila
dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)
Narziyeva Ma'mura
PhD, kotib (O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

Xalmuradov Rustam
t.f.d., professor (O'zbekiston)
Sirojiddinov Shuhrat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Eshqobil Shukur
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi, shoir (O'zbekiston)
Rixsiyeva Gulchehra
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Benedek Peri
f.f.d., professor (Vengriya)
Olimov Karomatillo
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shomusarov Shorustam
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dyu Rye Andre
f.f.d., professor (Fransiya)
Hamroyev Juma
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Aftondil Erkinov
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Hasanov Shavkat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Umurova Go'zal
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Xalliyeva Gulnoz
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Alim Labib
f.f.d., professor (Afg'oniston)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Мухиддинов Муслихиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилором Салохий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Содиков Косимжон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Биннатова Алмаз Улви
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Тухлиев Бокижон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шодмонов Нафас
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Асадов Максуд
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Юлдашев Казакбай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Журакулов Узок
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Фунда Топрак
д.ф.н., профессор (Турция)
Набиуллина Гузаль
д.ф.н., профессор (Татаристан)
Юсупова Дилнавоз
DSc, профессор (Узбекистан)
Сирожиддин Хужакулов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Рахим Иброхим
д.ф.н., профессор (Афганистан)
Туробов Абдурахим
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухитдинова Бадиа
DSc, профессор (Узбекистан)
Мухаммадиев Ахаджон
DSc, доцент (Узбекистан)
Сувонова Жумагул
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Мирзаев Рахматилла
к.ю.н., доцент (Узбекистан)
Абдуллаева Альбина
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурова Гулчехра
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Султанов Тулкин
PhD, доцент (Узбекистан)
Убайдуллаев Нормухаммад
PhD, доцент (Узбекистан)
Рузманова Рохила
доц., отв. секретарь (Узбекистан)
Нарзиева Мамура
PhD, секретарь (Узбекистан)

НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Халмурадов Рустам
д.т.н., профессор (Узбекистан)
Сирожиддинов Шухрат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Эшқобил Шуккур
Заслуженный работник культуры Республики
Узбекистан, поэт (Узбекистан)
Рихсиева Гулчехра
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бенедек Пери
д.ф.н., профессор (Венгрия)
Олимов Кароматилло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шомусаров Шорустам
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дю Рье Андре
д.ф.н., профессор (Франция)
Хамроев Джума
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Афтондил Эркинов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Хасанов Шавкат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Умурова Гузал
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Халлиева Гулноз
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Алим Лабиб
д.ф.н., профессор (Афганистан)

EDITORIAL BOARD:

Mukhiddinov Muslikhiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dilorom Salokhiy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Sodikov Kosimjon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Binnatova Almaz Ulvi
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Tukhliev Bokijon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shodmonov Nafas
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Asadov Makhsud
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Yuldoshev Kozokboy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Jurakulov Uzok
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Funda Toprak
DSc, prof. (Türkiye)

Nabiulina Guzal
DSc., prof. (Tatarstan)

Yusupova Dilnavoz
DSc, prof. (Uzbekistan)

Sirojiddin Khujakulov
DSc, prof. (Uzbekistan)

Rakhim Ibrokhim
DSc, prof. (Afghanistan)

Turobov Abdurakhim
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhitdinova Badia
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhammadiyev Akhadjon
DSc, assoc. prof. (Uzbekistan)

Suvonova Jumagul
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Mirzayev Rahmatilla
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Abdullayeva Albina
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Nurova Gulchekhra
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Sultanov Tulkin
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ubaydullayev Normuhammad
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ruzmanova Rokhila
Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)

Narziyeva Ma'mura
PhD, Secretary (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

Khalmuradov Rustam
Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)

Sirojiddinov Shukhrat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Eshqobil Shukur
Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)

Rikhsieva Gulchekhra
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Benedek Peri
Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)

Olimov Karomatullo
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dadaboev Khamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shomusarov Shorustam
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dyu Rye Andre
Doc. of philol. scien., prof. (France)

Khamroev Juma
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Aftondil Erkinov
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khasanov Shavkat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Umurova Guzal
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khallieva Gulnoz
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Alim Labib
Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

1. Афтондил ЭРКИНОВ АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЭРОН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ.....	7
2. Sherxon QORAYEV O'ZBEK XONLIKLARIDA NAVOIYXONLIK TENDENSIYALARI (XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING "NAVOIYXONLIK" KECHALARI MISOLIDA)...	15
3. Nigora TO'XTAQULOVA ALISHER NAVOIY HIKOYALARINING FOLKLOR BILAN BOG'LANISHI ("MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASI MISOLIDA).....	21
4. Jumagul SUVONOVA ALISHER NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARBIYAVIY G'OYALAR UZVIYLIGI AN'ANA VA ZAMON TALQINIDA.....	30
5. Zulfiya RASULOVA UZBEKSKO-TADJIKSKIE LITERATURNYE SVYAZI XX VEKA.....	37
6. Sitara QODIRQULOVA ALISHER NAVOIY LIRIKASI TARJIMONI ALEKSANDR NAUMOV HAQIDA.....	43

NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI

1. Shavkat YANGIBOYEV "ILK DEVON" SHE'RLARINING ALISHER NAVOIYNING BOSHQA DEVONLARIGA JORIYLANISHI.....	48
2. Shaxnoza KAXXAROVA ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER" MANOQIBIDA KOMIL INSON TALQINI.....	58
3. Sherxon QORAYEV ALISHER NAVOIY "OLIIY MAJLISLARI" VA NADIMLARI.....	70
4. Umida OTAYAROVA "XAMSA"LARNING SO'NGGI DOSTONLARIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI.....	79
5. Dilfuza RAXMATOVA NAVOIY G'AZALLARIDA SOLETSIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	85
6. Dilafro'z TAMIKAYEVA ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI VA UNI TADQIQ ETISH MASALALARI.....	92

NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

1. Umida UBAYDULLAYEVA TILSHUNOSLIKDA LISONIY MANZARA KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....	99
2. Rustamjon JABBOROV BOBURIYLARNING TURKIY TIL VA ADABIYOT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI.....	105

TAQRIZ, TAHLIL VA TARJIMA

1. Iroda ISHONXANOVA O'ZBEK ADABIYOTI YO'LBOSHCHISIGA BAG'ISHLANGAN NASHR.....	112
2. Roxila RUZMANOVA TURK DUNYOSINING YIRIK TADQIQOTCHISI.....	122




TAQRIZ, TAHLIL VA TARJIMA

Iroda ISHONXANOVA

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti
E-mail: irodaishanxonova@gmail.com
ORCID 0000-0003-1761-8408

O'ZBEK ADABIYOTI YO'LBOSHCHISIGA BAG'ISHLANGAN NASHR

For citation: Ishonkhanova Iroda. A PUBLICATION DEDICATED TO THE GUIDE OF UZBEK LITERATURE Alisher Navoi. 2026, vol. 6, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19412150>

ANNOTATSIYA

O'zbek adabiyoti tarixida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan Alisher Navoiy shaxsiyati borasidagi tadqiqotlar butun dunyo miqyosida olib boriladi. Bu borada Yevropa, Amerika olimlarining ilmiy faoliyati ko'pchilikka ma'lum. Shu jumladan, Sovet Ittifoqi hukmronligi davrida Rossiya hukumati O'rta Osiyo ijtimoiy hayoti bilan jiddiy qiziqqan. Va, albatta, adabiyot va san'at masalalari ham chetda qolmagan. Ayniqsa, Alisher Navoiy hayoti va ijodi ko'plab sharqshunos olimlar diqqat markazida bo'lgan. Shoir ijodining turli qirralari borasida izlanishlar olib borilgan. Maqolada Alisher Navoiy yubileyi munosabati bilan nashr etilgan "Родоначальник узбекской литературы" (O'zbek adabiyotining yo'l boshchisi) to'plamidagi maqolalar haqida so'z boradi. Ilmiy tadqiqotlarda Navoiy hayot yo'li, zamondoshlari bilan munosabatlari, asarlarining yaratilish tarixi, shaxsiyatining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni haqida mulohazalar bildirilgan. Maqolalar to'plami Alisher Navoiy hayoti va ijodining turli tomonlarini chuqur yoritishga bo'lgan intilish sababli shoir yubileyiga munosib sovg'a bo'la olgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi, "O'zbek adabiyotining yo'l boshchisi", maqolalar to'plami, "Muhokamat ul-lug'atayn", "Xamsa", "Chor devon", "Mahbub ul-qulub".

Ирода ИШОНХАНОВА

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
доцент Ташкентского государственного университета
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
E-mail: irodaishanxonova@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1761-8408

ИЗДАНИЕ, ПОСВЯЩЁННОЕ ПУТЕВОДИТЕЛЮ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

АННОТАЦИЯ

Исследования личности Алишера Навои, занявшего достойное место в истории узбекской литературы, проводятся по всему миру. Научные работы европейских и американских ученых в этой области хорошо известны многим. В частности, в период правления Советского Союза российское правительство проявляло серьезный интерес к общественной жизни Центральной Азии. В частности, жизнь и творчество Алишера Навои были в центре внимания многих востоковедов. Проводились исследования различных аспектов творчества поэта. В статье рассматриваются статьи из сборника «Родоначалник узбекской литературы», изданного по случаю годовщины Алишера Навои. Научные исследования позволили глубже понять жизненный путь Навои, его отношения с современниками, историю создания его произведений и место его личности в узбекской литературе. Сборник статей, призванный глубоко осветить различные аспекты жизни и творчества Алишера Навои, стал достойным подарком к юбилею поэта.

Ключевые слова: 500-летие со дня рождения Алишера Навои, «Родоначалник узбекской литературы», сборник статей, «Мухокамат уль-лугатайн», «Хамса», «Чор деван», «Махбуб уль-кулуб».

Iroda ISHONKHANOVA

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Associate Professor of the Tashkent State University
of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi
E-mail: irodaishanxonova@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1761-8408

A PUBLICATION DEDICATED TO THE GUIDE OF UZBEK LITERATURE**ABSTRACT**

Research on the personality of Alisher Navoi, who has a worthy place in the history of Uzbek literature, is being conducted worldwide. The scientific activities of European and American scientists in this regard are well known. In particular, during the rule of the Soviet Union, the Russian government was seriously interested in the social life of Central Asia. And, of course, issues of literature and art were not left aside. In particular, the life and work of Alisher Navoi were in the center of attention of many orientalist scholars. Research has been conducted on various aspects of the poet's work. The article discusses the articles in the collection "Rodonachalnik uzbekskoy literatury" (Leader of Uzbek literature), published on the occasion of the anniversary of Alisher Navoi. Scientific studies have expressed reflections on Navoi's life path, his relations with his contemporaries, the history of the creation of his works, and the place of his personality in Uzbek literature. The collection of articles has become a worthy gift for the poet's anniversary due to the desire to deeply cover various aspects of Alisher Navoi's life and work.

Keywords: 500th anniversary of the birth of Alisher Navoi, "Leader of Uzbek literature", collection of articles, "Muhokamat ul-lughatain", "Khamasa", "Chor divan", "Mahbub ul-qulub".

Kirish

Ma'lumki, Alisher Navoiy shaxsig a qiziqish u hayotlik davridayoq boshlangan. Zamondoshlari ijodkor haqida o'z xotiralarini asarlari vositasida qoldirib ketganlar. Navoiy hayoti va ijodining rusiyzabon olimlar tomonidan o'rganilishi 19-asr oxiri – 20-asr boshlarida faollashgan. 1856-yilda Mixail Nikitskiy tomonidan "Amir Nizomiddin Alisher, uning davlat arbobi va shoir sifatidagi faoliyati" ("Эмир-Низам-Эд-Дин-Али-Шир, в государственном литературном его значении") mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining himoya qilinishi ushbu faoliyatning dastlabki samaralaridan biridir. Keyinroq ham ko'plab ilmiy tadqiqotlar e'lon qilingan. Ana shunday to'plamlardan biri Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan 1940-yilda nashr etilgan

“Родоначалник узбекской литературы” (“O‘zbek adabiyotining yo‘lboshchisi”) deb nomlangan maqolalar majmuasidir.

To‘plamning kirish qismida ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy haqida rus tilidagi ilmiy manbalarning kamligi muammosi aytib o‘tilgan. Shu bilan birga, keng kitobxonlar doirasiga mo‘ljallangan ilmiy-ommabop ishlar bilan bog‘liq masalalar bundan-da og‘ir ahvolda ekanligi ta‘kidlangan. Temuriylarning shoir yashab ijod etgan davri kam o‘rganilgan.

Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, ushbu to‘plam ilmiy tadqiqotlarning to‘liqligi hamda chuqurligini da‘vo qilmaydi. Bu kitob asosan ulug‘ shoirning poetik ijodi borasidagi umumiy ma‘lumot beruvchi obzor ko‘rinishidagi materiallardan tashkil topgan.

Asosiy qism

To‘plamdagi ilk maqola Navoiy yubiley qo‘mitasi raisi A. Abdurahmonovga tegishli bo‘lib, “Alisher Navoiy yubileyi” deb ataladi. (Abdujabbor Abdurahmonov sovet davlat va partiya arbobi, 1938-1950- yillarda Xalq Komissarlari Kengashi raisi lavozimida ishlagan.) Maqola muallifi Alisher Navoiyning o‘sha davrda “urf”da bo‘lgan forsiy tilda ijod qilish an‘anasini buzib, o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini yaratib, she‘rlarni turkiy tilda yaratish huquqini himoya qilganini ta‘kidlaydi. Bu fikrning yorqin isboti sifatida aynan Navoiyning o‘lmas asarlari – “Chor devon” va “Xamsa” yaratilgan.

A. Abdurahmonov Sharqning mashhur tarixchilari Mirxond va Xondamir, yirik musiqachilar Husayn Udiy va Qulmuhammad Naiy, iste‘dodli musavvirlar Behzod va Shoh Muzaffar, mashhur xattotlar – Sulton Ali va Mir Ali hamda boshqa ko‘p ijodkorlar buyuk Alisherning tarbiyasini olganlariga urg‘u bergan.

Alisher Navoiy faoliyatiga siyosiy tus berishga harakat qilingan. Jumladan: “Farhod va Shirin, Layli va Majnun timsolida Navoiy hayotning feodal-patriarxal va qabilaviy asoslari, ajdodlarning qullik xurofotlariga qarshi chiqqan insonlar obrazini yaratdi. Bu qahramonlar islom tomonidan belgilangan chegaralardan uzoqlashgan holda, inson shaxsi ozodligi bayrog‘ini baland ko‘tardilar, mustaqillik huquqi uchun kurashdilar. Navoiyning betakror ijodi xususiy mulkka asoslangan, mulkdorlar boyligi oldida inson shaxsiyati ezilgan jamiyatdagi bunday yaxshi insonlarning fojiasini ishonchli tarzda ko‘rsatib bergan” (Род.узб.лит., 1940:6).

A. Abdurahmonov Navoiy o‘zbek adabiyoti tarixiga hukmdorlar, amaldorlar, savdogar va mullalarni ayovsiz tanqid qiladigan shoir sifatida kirganini ta‘kidlaydi. Ijodkorning adabiyot olamidagi o‘rniga yuksak baho berilgan: Alisher Navoiy yirik shoir, badiiy so‘z ustasi sifatida Sharq xalqlari adabiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Ozarbayjon, turkman, qozoq va tatar adabiyoti uzoq vaqt Navoiy ijodi ta‘sirida bo‘lgan. 17-asrdayoq Navoiy dostonlari gruzin tiliga tarjima qilingan.

Shuningdek, maqolada siyosiy masalalarga jiddiy ahamiyat berilgan. “Ulug‘ shoir Alisher Navoiy, zulm va zo‘ravonlikka qarshi kurasharkan, xalq uchun haqiqiy quvonchli va baxtli hayot yaratishni orzu qildi, lekin o‘sha davrdagi ijtimoiy taraqqiyot sharoiti tufayli bu orzusini amalga oshirishning haqiqiy yo‘llarini bila olmadi” (Род.узб.лит., 1940:8) deb hisoblaydi muallif.

Sovet Ittifoqining proletariat diktaturasiga Alisher Navoiy shaxsini moslashtirish uchun hukmron doiralarga va din ahllariga qarshi fikrlar egasi sifatida talqin qilishga urinish maqoladan sezilib turibdi. O‘sha davr siyosatini har tomonlama ko‘kka ko‘tarish ba‘zi o‘rinlarda, hatto sun‘iylashib ketgan.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi muxbir a‘zosi, turkiyshunos olim Aleksandr Borovkov Alisher Navoiy hayoti va ijodining o‘rganilishi masalasiga doir maqola bilan to‘plamga kirgan.

Alisher Navoiy davridan bizni besh asr ajratib turibdi. Ma‘rifatparvar va insonparvar Alisher Navoiy hayotlik davridayoq juda mashhur bo‘lgan. Uning shuhrati vafotidan keyin ham so‘nmagan. Navoiyning betakror asarlari asrlar davomida badiiy mahorat va chuqur ijodiy tafakkur namunasi bo‘lib kelmoqda. Ammo, ma‘lum sabablarga ko‘ra, Alisher Navoiy ijodi yetarli darajada o‘rganilmagan.

O‘zbekistonda bosmaxonalar paydo bo‘lganga qadar Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalari juda ommalashgan, ular shaxsiy kutubxonalarning qimmatli mulki hisoblangan.

Alisher Navoiyning Qo‘qon xonligiga ta‘siri katta bo‘lgan. Xonlikdagi hukmdorlar o‘zlarini temuriyzoada hisoblaganlar va she‘riyatda ularning an‘analarini davom ettirganlar.

Alisher Navoiy ijodining tatar, qozoq, turkman adabiyotiga ta'siri bo'lgan. Povolj'ye, Qrim, Ozarbayjon, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Sharqiy Turkistonda ham qiziqish katta bo'lgan. Gruzin tiliga ham tarjima qilingan.

Navoiy asarlari turli xattotlar tomonidan turli yillarda ko'chirilgani sababli asl nusxaning o'zgarishiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Ayniqsa, "Mahbub ul-qulub" asarida o'zgarishlar ko'p bo'lgan, chunki u eng ommabop asarlardan hisoblanadi, unda Navoiy maishiy va ma'naviy masalalar yuzasidan o'tkir fikrlar bildirgan. Bunda xattotning o'zgartirishi maqola muallifi tomonidan maqsadli deb hisoblanadi.

Shuningdek, maqolada Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'atlar haqida ham ma'lumotlar berilgan. Bu Navoiyga bo'lgan qiziqishni anglatadi.

Yevropa sharqshunoslari shoir asarlariga filologik nuqtayi nazardan yondashganlari bois, Navoiy asarlari universitet til kurslari va xrestomatiyalarga majburiy adabiyot sifatida kiritildi.

Alisher Navoiy haqidagi birinchi ilmiy ish sifatida M.Nikitskiyning magistrlik dissertatsiyasi tilga olinadi. Unda Davlatshoh Samarqandiy va Xondamir asarlaridan manba sifatida unumli foydalanilgan. Besh yildan so'ng fransuz sharqshunosi M.Belen maydonga chiqdi. Ammo bu ikki ijodkor Navoiy ijodini yuzaki tadqiq qilishgan. Ular shoir ijodi va faoliyatida yagona g'oyaning mavjudligi, asarlari tuzilishi, ularning fors adabiyoti bilan bog'liqligi masalalariga to'xtalishmagan. M.Belen uchun Navoiy o'z davrining mutafakkiri va Xusrav Dehlaviy, Nizomiy, Jomiylarning tarjimoni hisoblanadi. Shu bilan birga, Belen Navoiyning tarix, mantiq, falsafa, din, tasavvuf, she'riyat, musiqa sohalariga qiziqishini ta'kidlaydi.

Maqolada Alisher Navoiyning yolg'izligi va uning Husayn Boyqaro bilan munosabati haqida turli olimlarning fikrlari berilgan.

Nikitskiy va Belen ishlari ancha vaqtgacha Alisher Navoiy haqidagi yagona umumiy tadqiqot sifatida qoldi. Keyingi ishlarda bu tadqiqotlardan nusxa ko'chirish holatlari uchradi.

Maqolada, shuningdek, Alisher Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga to'xtab o'tiladi.

Alisher Navoiyning tasavvufga munosabati haqidagi masala juda murakkab, chunki feodalizm davrida din hukmron mafkura bo'lgan va ko'pincha yangi siyosiy va madaniy g'oyalar din qobig'ida ifodalangan. Sharqdagi tasavvuf turli sinflar siyosiy kurashida asosiy rolni o'ynadi va she'riyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Shuning uchun Alisher Navoiyning tasavvufga munosabatini maqola muallifi mustaqil muammo deb hisoblaydi.

SSSR Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi, professor Yevgeniy Bertels maqolasi "Layli va Majnun" tahliliga bag'ishlangan. Layli va Majnun fojiali sevgisi arab diyorida bo'lgani haqida rivoyatlar bor. Majnunga nisbat berilgan she'rlar ham, uning nomi bilan bog'liq rivoyatlar ham arablar orasida keng tarqaldi. Shunga qaramay, bu syujet arab adabiyotida to'liq rasmiylashtirilmagan. Bizda mavjud bo'lgan eng qadimiy materiallarning barchasida yaxlit hikoyasi emas, balki alohida epizodlar bo'lib, ular odatda u yoki bu she'rning izohi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu epizodlar bir-biridan tafsilotlari bilan farq qiladi, lekin ular asosiy yo'nalishda bir-biriga yaqin bo'lib, afsonaning barcha muhim o'rinlarini kuzatish imkonini beradi.

Bu afsona Hindiston chegarasidan Kavkazortigacha bo'lgan hudud – musulmon olami bo'ylab tarqalgan. Xususan, Bobo Ko'hiy Sheroziy (vafoti 1050) devonida ham Layli va Majnun ismi qayd etilgan. Bu darvishlar orasida bu ismlar mashhur bo'lganini bildiradi. Ammo X-XI asrlarda faqat shunday alohida ma'lumotlarni uchratish mumkin, yaxlit kompozisiya mavjud emas. Shu sababli bu mavzuni birinchi bo'lib ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy ishlab chiqqan deb hisoblash mumkin.

Nizomiy dostoni mashhur bo'lgani uchun unga taqlid qiluvchilar ko'p bo'lgan, lekin ularning dostonlari bizgacha yetib kelmagan. Balki ularning badiiy jihatdan mukammal emasligi sabab bo'lgandir.

Nizomiydan 100 yil keyin yaratilgan Xusrav Dehlaviyning dostoni shuhrati keng tarqaldi. Olim ikkala doston xususiyatlarini qiyoslaydi. Masalan, ikkala doston ham Layli va Majnun yozishmalari haqida hikoyatlar bor. Nizomiyda Layli Ibn Salomga turmushga chiqayotgani uchun Majnun oldida o'zini oqlasa, Dehlaviyda Majnun Navfalning qiziga uylangani uchun Layli uni ayblaydi.

Bertels Xusrav Dehlaviy Nizomiy falsafiy fikri chuqurligini his qilmadi deb hisoblaydi. Dehlaviy dostoni o'qishga yengil, yoqimli, tili jonli. U saroy shoiri sifatida a'yonlar orasida yurgani uchun odamlarning didini yaxshi o'rgangan. Shu sababli 15-asr O'rta Osiyo saroy doiralarida Xusrav Dehlaviy Nizomiydan ustun qo'yilgan.

Navoiy o'zining oltita katta dostonining ikkinchisi "Layli va Majnun"ni 1483-yilda tugatdi. U o'ziga yozilgan faqat ikki dostonidan foydalanishi mumkin edi. Chunki Abdurahmon Jomiyning dostoni 1484/85 -yillarda yozib tugatilgan. Kirish qismida Nizomiy va Dehlaviy yuqori baholangan tarzda ta'riflanadi. O'zining bu dostonni yozishdan maqsadlarini bayon etadi (Bertels asardan parchalar keltirgan holda o'z fikrini asoslagan).

Maqola muallifi savol beradi: Modomiki, Navoiy yangi asar taqdim etmoqchi ekan, nima uchun eski qoliplarni rad qilmadi va an'analarga aloqador bo'lmagan asar yaratmadi? "Chunki, - fikr bildiradi olim, - u XIX asrda emas, XV asrda yashadi. XIX asr ijodkori betakror bo'lishga harakat qiladi, feodal jamiyatda esa buning imkoni yo'q edi".

Bertels nazirago'ylik an'anasi haqida gapirib, Navoiyning dostoni Nizomiy va Dehlaviy dostonlariga nazira sifatida yozilganini aytadi.

Baxt va shodlik kuychisi Hamid Olimjonning Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostoniga bag'ishlangan maqolasi keltirilgan. Dostonidagi voqealar tarixiy faktlarga asoslanishi haqida fikr bildiriladi. Navoiygacha bu doston "Xusrav va Shirin" nomi bilan mashhur bo'lgan. Xusrav Eron VII asrda hukmronlik qilgan sasoniy hukmdor No'shiravonning nabirasi. Tarix guvohlik beradiki, Muhammad payg'ambar islom dinini qabul qilishga chaqiruv ma'nosidagi xatni qo'shni davlatlarga yuborganda, Xusrav Parvez uni yirtib tashlagan.

Nizomiydan so'ng ko'plab ijodkorlar "Xusrav va Shirin" dostonini yozishdi, lekin shuhrat qozonishmadi. Mashhur bo'lgan dostonlardan biri Xusrav Dehlaviyga tegishli bo'lgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan so'ng, maqola muallifi Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni ta'rifiga o'tadi. Uning kirish qismidagi Nizomiy va Dehlaviy ta'rifi, avvalgi dostonlardan farq qiluvchi tomonlar haqida so'z boradi. Xususan, asar nomi, Farhodning bosh qahramon sifatida berilishi, voqealar kengroq regionda o'tishi (Nizomiyda – Eron, Armaniston, Navoiyda – Xitoy, Yunoniston, Armaniston) va boshqalar.

Farhod va Shirinning do'stlari – Shopur, Mehinbonu va Bahrom haqidagi dostonidagi voqealar xalq orasida ommalashgan. Maqola muallifi har bir qahramonga ta'rif beradi. Shuningdek, ijodkor qahramonlarni xitoy, arman va eron xalqlaridan tanlagani bois, Alisher Navoiyni xalqlar do'stligini kuylovchi shoir sifatida ulug'laydi.

Xusrav, Yosuman kampir va Sheruya timsollarida yomonlik qiluvchi kishilar tasvirlanadi. Maqola muallifi ushbu salbiy qahramonlar ta'rifiga ham keng to'xtaladi, har birining xatti-harakatini keltirib o'tadi. Xusrav va Farhod dialogiga alohida e'tibor qaratadi, bu ikki timsol o'zaro qarama-qarshi qo'yilganini ta'kidlaydi. Shirin Xusravni sevmaydi, uning hukmronligi, boyligi qizni qiziqitirmaydi. Farhod ham, Shirin ham umrlarining oxirigacha unga qarshi kurashadilar. Lekin ular yashayotgan jamiyatda Xusravlar hukmronlik qiladi, shu sababli Farhod doim qarshiliklarga uchraydi, shu sababli erkinlikka intilgan Shirin halok bo'ladi.

"Farhod va Shirin" dostonini yozar ekan, Navoiy yangilik izladi, hali hech kim aytmagan yangi so'zlarni aytmoqchi bo'ldi. U birovlar yurgan yo'ldan yurish, birovlar aytgan gapni takrorlash ijodkor uchun xos emas deb hisoblardi. Shoir yangi narsa yaratishi kerak, jahon bog'ida gul ko'p, chaman ko'p, keraklisini topish uchun mehnat qilish kerak.

Hamid Olimjon maqolasi uslubiy ilmiydan ko'ra ko'proq publisistik uslubga o'xshaydi. Chunki unda davlatni siyosatni madh etish, ayrim siyosiy tushunchalarni noo'rin ishlatish, balandparvoz gaplar va bo'rttirishlar uchrab turadi. Aniq ilmiy asosga, faktga tayangan holda tahlil qilish, xulosa chiqarish nisbatan kamroq uchraydi.

Shoir va davlat arbobi Uyg'un to'plamdagi maqolasida Navoiyning "Chor devon"i borasida fikr yuritadi. "Navoiy nafaqat Xusrav Dehlaviy va Nizomiy bilan bir qatorda turuvchi shoir emas, Hofiz, Sa'diy va Jomiylarga teng keluvchi lirik ijodkordir" deb hisoblaydi shoir Uyg'un.

Navoiy o'zining forsiy g'azallarini "Foniy" taxallusi bilan yozdi va 12 ming misra she'rlarini bir devonga jamlagan.

Uyg'un "Xazoyinul-maoniy" har bir devonining nomlanishi, ma'nosi, devonlar tarkibiga kirgan asarlar haqida ma'lumot beradi.

Shuningdek, devonlarga kiritilgan janrlar haqida faktlar keltirilgan (negadir musammanga "семиричные" deb ta'riflangan/65-bet).

Uyg'un o'z maqolasida Alisher Navoiyning din ahllari borasida yozgan she'rlariga diqqatini qaratadi. Shayxlar haqidagi misralar bir tomonlama tahlil qilinadi, din ahllari nisbatan salbiy ta'rif beriladi. Ba'zi o'rinlarda bu ta'rif juda bo'rttirib yuborilgan.

Bundan tashqari, maqolada Alisher Navoiyning hukmdor doiralarga, saroy ahliga nafrat bilan munosabatda bo'luvchi ijodkor sifatida tasvirlangan. Shuningdek, Navoiy yashagan davr ham adolatsizlik, nohaqlik, zulmga to'la deb tasvirlangan va ijodkor uchun zindondek tuyulgani aytilgan.

Uyg'un Navoiyni quyoshga, uning shaxsiyati va ijodini noto'g'ri talqin qiladiganlarni ko'rshapalakka o'xshatadi. Uning fikricha, Navoiy o'z g'azallarida, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlarida oddiy insoniy muhabbatni kuylagan. Shoirning muhabbat va do'stlik haqidagi fikrlarini o'z ma'nosida qabul qilishi kerak.

Shuningdek, maqola muallifi ulug' shoir o'zbek tili taraqqiyoti uchun ko'p xizmat qilganini, lekin boshqa xalqlar madaniyati va tiliga chuqur hurmat bilan qaraganini ta'kidlaydi.

O'zbek folklorshunosligi asoschisi Hodi Zarif Navoiy ruboiylari borasida mulohazalar bildiradi. "Ruboiy" so'zi to'rtlik ma'nosini anglatishi, hazaj bahrining ahrab va ahram shajaralarida yozilishi keltirilgan.

Qadimgi eron adabiyoti haqida qimmatli materiallar qoldirgan Ibni Qays ruboiy janri xalq ichida eng sevimli va keng tarqalgan janr ekanligi va u ayollar orasida ayniqsa mashhurligini ta'kidlaydi. Bu janrning qadimiyligi xalq qo'shiqlariga xos "Hazaji musaddasi mahzuf" ohangiga mosligi deb hisoblangan.

She'r ustalarining ruboiyni aruz tizimiga moslashtirishga urinishlari natijasida 24 ta ruboiy vazni yuzaga keldi. Bu haqda Alisher Navoiy ham o'zining "Mezon ul-avzon" asarida to'xtalib o'tadi.

Bu janrning fors-tojik adabiyotidan o'zbek adabiyotiga o'zlashganligi haqida ilmiy manba yo'q. Lekin bu hodisa ancha avval bo'lgani aniq, chunki Navoiygacha ham o'zbek ijodkorlari ruboiy yozishgan.

Agar har qadamda ruboiylarni ifodali o'qiydiganlar, yig'inlarda ijro etadiganlar, yon daftarchasiga doimiy yozib boradiganlarni eslasak, ruboiylarning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini his qilamiz. Hattoki, ruboiylardagi iboralar xalqqa yod bo'lib ketgan.

Hodi Zarif ham Uyg'un kabi Navoiyni juda qiyin davrda yashagan hamda ezilgan xalqning muammolarini ruboiylarida aks ettirgan deb hisoblaydi.

Shuningdek, maqola muallifi Alisher Navoiy ruboiylaridan namunalar keltirib, ularning mazmuni va g'oyasi haqida munosabat bildiradi. Hattoki, "Navoiyning hayotiy tajribasi din va ruhoniyatdan hech qanday foyda yo'qligini anglatadi va u bu haqda ochiq aytadi" degan fikrlar bor (Род.узб.лит., 1940:83). Maqolaning diqqatga sazovor tomoni shundaki, unda fors-tojik va o'zbek xalq og'zaki ijodi haqida kerakli ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, davr siyosatiga moslashtirilgan bo'lsa-da, bir qancha ruboiyning mazmuni va g'oyasi tahlil qilingan.

Yunus Latifning to'plamga kirgan maqolasi Alisher Navoiyning so'nggi asari "Mahbub ul-qulub" haqida ma'lumot beradi. Yunus Latif 30 yoshida qatag'on qilingan navoiyshunos olim bo'lib, 1939 yilda "Mahbub ul-qulub" asarining ilmiy tanqidiy matnini tayyorlagan. Bu vaqtda olim 28 yoshda bo'lgan. Maqolada "Mahbub ul-qulub" asarining g'oyasi, shakli, mavzu doirasi, tarkibiy qismlari haqida atroflicha ma'lumot berilgan.

Olimning fikricha, bu asar Alisher Navoiy butun hayoti davomida ko'rganlarining xulosasi sifatida diqqatga sazovor hamda boshqa asarlaridan keskin ajralib turadi. Asarda ijodkor nafaqat hayotiy hodisalarni bayon qiladi, izohlaydi, balki insoniyat kelajagi uchun zarur xulosalarni badiiy shaklda taqdim etadi.

Navoiy ushbu asarda tabiblar, hukmdorlar, vazirlar, saroy a'yonlari, firibgarlar, mullalar haqida yozadi, ularning bo'sh g'oyalari, ichki dunyosi haqida yozadi. O'z vazifasiga loyiq bo'lmaganlarni tanqid qiladi.

Hammasidan ham hukmdorlarning xalqqa nisbatan zulmi va qattiqqoʻlligi tanqid qilinadi. Aslida podshoh qanday boʻlishi kerakligi ushbu asarda juda batafsil tasvirlab berilgan. Shuningdek, qozi, mufti, tabiblar ham qattiq tanqid qilingan.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarini turli koʻrsatmalar bilan yakunlaydi. Bu qismda betakror aforizmlar koʻp. Xalq ogʻzaki ijodiga muhabbat, uni chuqur tadqiq qilish Navoiy aforizmlari rang-barangligi va maʼnodorligini taʼminlab bergan. Dunyoni anglashda ularning ahamiyati katta.

Maqola muallifi bu boʻlimda Alisher Navoiyning hikmatli soʻzlarini keltiradi va ularni izohlaydi. Jumladan, “Chin soʻz – moʻtabar, yaxshi soʻz – muxtasar”, “Toma-toma koʻl boʻlur” kabi aforizmlar ijodkorning xalq ogʻzaki ijodidan yaxshi xabardor boʻlganligini isbotlaydi.

Tilshunos va lugʻatshunos Olim Usmonov “Muhokamat ul-lugʻatayn” asari borasida qilgan tadqiqotini keltirgan. Maqola boshlanishida oʻzbek tili taraqqiyotining Alisher Navoiygacha boʻlgan davri haqida soʻz boradi. Muallif 8-asrda arablarning bostirib kelganligi va shu sababli sodir boʻlgan oʻzgarishlar haqida soʻz yuritadi.

Bu davrda arab tili birinchi oʻringa chiqdi, fors-tojik tili va boshqa mahalliy xalqlarning tillari chetga surildi. Akademik Marr fikriga koʻra, arab tili musulmon adabiy tilining onasi edi. Xuddi Oʻrta asrlarda lotin tili Gʻarbiy Yevropada, slavyan tili Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropada xalqaro til boʻlgani kabi, arab tili ham Gʻarbiy Osiyoda xalqaro tilga aylandi.

Arab tilining taʼsiri kuchliligidan, olimlar oʻz ilmiy asarlarini arab tilida yozishgan. Muallif Beruniy, Forobiy, Koshgʻariylarning asarlarini misol qilib keltiradi. Keyinchalik arab tilining taʼsiri kamaygan. Olim fors-tojik tilida yaratilgan asarlar haqida maʼlumot berarkan, asta-sekin turkiy tilda ham ijod namunalari paydo boʻlgani haqida maʼlumot beradi. Masalan, Yassaviy, Rabgʻuziy asarlarini misol keltirarkan, ular Navoiyning turkiy tildagi asarlarichalik shuhrat keltirmaganini taʼkidlaydi.

O.Usmonovning taʼkidlashicha, “Navoiy oʻz ona tilining vatansizligiga chek qoʻydi, uni adabiy tilga aylantirdi, unda mumtoz asarlar yaratish imkoniyati paydo boʻldi. Ulugʻ shoir oʻz xalqining tilini davlat tiliga aylantirishga intilib, ikki tilni qiyoslash kabi kurash usulidan ham voz kechmadi.” (Род.узб.лит., 1940:106)

Shuningdek, muallif Navoiy va Binoiy oʻrtasidagi ziddiyatlarga ham toʻxtalib oʻtgan.

Bu maqolaning diqqatga sazovor tomoni yana shundaki, unda “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarining koʻplab nashrlari haqida maʼlumot berilgan.

Shoir va olim Maqsud Shayxzodaning maqolasi “Navoiy va zamonamiz” deb nomlangan.

Shayxzoda Alisher Navoiy ijodini boʻyab-bejamasdan, astoydil mohiyatiga yetib oʻrganish kerak, shundagina uning qimmatini bilish mumkin deb hisoblaydi. Muallif oʻsha davr siyosati uchun xos boʻlgan F.Engels va V.Lenin sitatalaridan keltirgan.

Shayxzoda Alisher Navoiyning soʻfiy boʻlmaganini qatʼiy taʼkidlaydi. Bunga asos sifatida uning turmush tarzi zohidlarga xos oʻtmaganini keltiradi. Shuningdek, uni ateist deb hisoblash ham toʻgʻri emas, u Xudoga ishonardi, deydi muallif. Uning asarlari antiklerikal xarakterda boʻlib, u ayrim ruhoniylarni qattiq tanqid ostiga olardi.

Maqola muallifi “Mahbub ul-qulub” asarida munajjimlarning ustidan kulganini aytib oʻtadi. Fikrining isboti uchun Husayn Boyqaro munajjimlar bashorati bilan emas, Alisher Navoiyning maslahati bilan Yodgor Muhammadni yengani tarixiy faktini keltiradi.

“Majolis un-nafois” asari uchun gʻazallar tanlaganda ham antiklerikal sheʼrlar tanlanganiga ishora qiladi. Misol tariqasida Abdulhaq Astrobodyning sadrlarning poraxoʻrligini fosh etuvchi gʻazalini keltiradi.

Sovet davrida koʻplab olimlar Alisher Navoiy dostonlaridagi qahramonlarning turli millat vakili ekanligi sababli undagi xalqlar doʻstligi tuygʻusi kuchliligiga urgʻu berishardi. Shu xususiyat Shayxzodaning maqolasida ham bor: “Navoiyning baynalmillalligi uning asarlaridagi qahramonlarni tanlashda ham yaqqol namoyon boʻladi. Biz bu yerda turli mamlakatlar va xalqlarning oʻgʻil-qizlarini koʻramiz: arablar, forslar, misrliklar, oʻzbeklar, suriyaliklar, xorazmliklar, yunonlar, xitoylar, armanlar, hindular, berberlar, habashlar va boshqalar. Ular bir-biri bilan xalqaro birodarlik rishtalari orqali uzviy bogʻlangan.” (Род.узб.лит., 1940:121)

Sharqshunos olim, tarix fanlari doktori, professor A.A.Semenovning “Alisher Navoiy davri Hirot san’ati” maqolasi ham to’plamga kiritilgan.

Maqola muallifi o’z fikrini Hirot shahrining tarixi haqidagi ma’lumotlar bilan boshlaydi. Shuningdek, Hirotning ilm va san’at markazi bo’lganligi, Husayn Boyqaro davrida shahar ichida yangi binolar hamda shahar tashqarisida go’zal bog’lar ko’paygani to’g’risida tarixchi Xondamirning asarlarida ma’lumotlar borligi ham aytib o’tiladi.

Hirot davri, ya’ni 15-asrning 2-yarmi Osiyo intellektual hayoti tarixida unutilmas davr bo’lgan. Temuriylar sulolasining yakunida juda yorqin asarlar yaratilgan.

Olim Abdurahmon Jomiyning “Xamsa”lardan ilhomlanib yozgan “Haft avrang”iga alohida to’xtalib o’tadi. Jomiyning adabiy mahorati Eron, Turkiya, Hindiston va boshqa davlatlarga ham mashhur bo’lgan. O’sha davrning hozirgi kungacha Eron, O’rta Osiyo, Afg’oniston, Hindistonda mashhur bo’lgan ijodkorlaridan Xotifiy, Hiloliy va Binoiylarni aytish mumkin.

Olim Navoiy davri haqida shunday deydi: “Alisher Navoiy davrida adabiy yutuqlar va badiiy dizayn uyg’unlashgan mislsiz adabiy asarlar yaratildi. Tirik mavjudotlarni u yoki bu tarzda suratga olish zarurati katta bo’lishiga qaramay, ularni tasvirlashning ta’qiqlanishi, Hirotta xattotlik va miniatyura san’atining g’ayrioddiy gullab-yashnashiga xizmat qildi.” (Род.узб.лит., 1940:133).

Hirottdagi xattotlar faoliyati haqida fikrlar bildirilgan. Xususan, Sulton Ali Mashhadiy hayoti haqida ko’plab ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Hirot miniatyura maktabi ham tilga olinadi, buyuk musavvir Kamoliddin Behzod shaxsiyatiga to’xtab o’tiladi.

Maqolada, shuningdek, Mahmud Muzahhib, Mirak Naqqosh to’g’risida so’z boradi. Hirottdagi arxitektura obidalar ham sanab o’tilgan. Ularning qurilishida Alisher Navoiyning xizmatlari ulkan bo’lganligi ta’kidlangan.

A.A.Molchanovning maqolasida Alisher Navoiy davrida Hirottda soliq tizimining xususiyatlari haqida so’z boradi. Molchanov Abdurahmon Jomiy haqida gapirarkan, uni fors-tojik adabiyotidan ko’ra ko’proq turkiy adabiyotga mansub ijodkor hisobladi. “Uning Eron adabiyoti bilan umumiy bo’lgan yagona jihati – umumiy til, mavzu an’analari va Eron she’riyatining ayrim rasmiy xususiyatlari. Biroq uning asarlarining ichki mazmuni va yo’nalishi XV asrdagi O’rta Osiyo davlat tuzilmalarining ijtimoiy-siyosiy tuzilishi bilan chambarchas bog’liq edi” (Род.узб.лит., 1940:153) deb ta’kidlaydi maqola muallifi.

Abdurahmon Jomiy o’ziga tegishli yerlardan olinayotgan soliqlarni kamaytirish hamda ma’lum muddatga to’xtatib turish masalasida Husayn Boyqaroga murojaat qiladi. Husayn Boyqaro uning talabini qondirilishini buyurib, farmon chiqaradi. Maqolada farmonning arab yozuvidagi nusxasi va rus tiliga tarjimasini berilgan. Shuningdek, maqolada xususiy yer maydonlari, vaqf yerlari va boshqa turdagi mulklar, soliq ko’rinishlari haqida ma’lumotlar berib o’tilgan. “Tarxon” so’zining mazmunini izohlar ekan, Molchanov A.A. Abulg’ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asaridan parcha keltirilgan.

Sovet sharqshunosi va filologi Mixail Aleksandrovich Salyening maqolasi “Makorim ul-axloq” va uning muallifi” deb ataladi hamda maqolaga “Makorim ul-axloq”ning rus tiliga tarjimasini ilova qilingan. Akademik V.V.Bartold o’zining “Mir Alisher va siyosiy hayot” ocherkida nisbatan keng va qimmatli materialdan foydalangan. Lekin bu maqolada Navoiyning zamondoshi Xondamir tomonidan yozilgan o’ziga xos biografiasini haqida bir so’z ham aytilmaydi. Buning sababi sifatida Salye Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarining faqat bitta – Britaniya muzeyida saqlangan nusxasi yetib kelganligida deb hisoblaydi.

1939-yil yozida Navoiy yubileyi qo’mitasi Britaniya muzeyidan “Makorim ul-axloq” asarining fotonusxasini olgan hamda uning to’liq tarjimasini amalga oshirilgan.

Salyening ma’lumot berishicha, Xondamirning 10 ga yaqin asari bo’lgan, ular ham bizgacha to’liq yetib kelmagan. “Habib us-siyar” asari juda ommalashgan va uning turli qo’lyozmalari bizgacha yetib kelgan. Toshkentdagi milliy kutubxonada 1026 (1617)- yilda ko’chirilgan nusxasi bor.

Xondamirning umumiy tarixi o’tgan asrning 50-yillarida (1850) Mumbay va Tehronda toshbosma usulida bosilgan. Uning boshqa tarixiy asarlarining faqatgina nomini bilamiz.

Xondamir shaxsiyatining shakllanishida Alisher Navoiy inson va ijodkor sifatida katta rol oʻynagan. Oʻz solnomachisidan 40 yosh katta boʻlgan Navoiy Xondamirga uning bobosi Mirxondga nisbatan oʻrnatgan munosabatidek muomalada boʻldi.

Xondamir oʻzining birinchi asarini Alisher Navoiy maslahati bilan, unga bagʻishlab yozadi. Navoiy tarixchining ishini osonlashtirish maqsadida unga oʻz kutubxonasidan foydalanish huquqini beradi. Bundan taʼsirlangan Xondamir Navoiyning fazilatlarini taʼriflash uchun maxsus kitob yozish bilan unga minnatdorchiligini bildirmoqchi boʻldi, lekin kitobni taqdim etishga ulguradi. Chunki kitob yakunlanmasidan Navoiy vafot etdi. Bundan taʼsirlangan Xondamir Alisher Navoiy faoliyatini yozish ishlarini tashlab qoʻydi, ammo Husayn Boyqaroning iltimosiga koʻra kitobni yozib tugatdi.

Salye shuni taʼkidlaydiki, “Makorim ul-axloq” biografik hujjat sifatida katta qimmatga ega. Xondamir asarlarining asosiy ahamiyati shundaki, Navoiy umrining oxirida u bilan yonma-yon turgan zamondoshi tomonidan yozilgan. Bu kitobda xitob mashqlari va soʻzamollik boʻyoqlari orasidan Navoiyni shoir, olim, davlat arbobi va eng muhimi, inson sifatida koʻramiz.

Toʻplamning soʻnggi maqolasi Toʻxtasin Jalolovga tegishli boʻlib, “Sabʼai sayyor” deb nomlangan. Toʻxtasin Jalolov Bahrom timsolining birinchi marta Firdavsiy “Shohnoma” asarida uchrashini maʼlumot sifatida aytadi. Undan keyin juda koʻp ijodkorlar bu syujet asosida asarlar yozishgan.

Maqola muallifi “Sabʼai sayyor” dostonining qisqacha mazmunini keltiradi. “Bahromning rohat-farogʻatga, ziyofatlarga haddan tashqari moyilligi, xalq manfaatini butunlay unutishi temuriylarga xos xususiyatdir. Maʼlumki, Temur vafotidan keyin xonadonidan uning ulkan saltanatini boshqarishga qodir birorta ham odam topilmadi” (Род.узб.лит., 1940:218) deb hisoblaydi olim. Shuningdek, u temuriy hukmdorlar Xalil Mirzo va Husayn Boyqaroning davlat boshqaruvi haqida maʼlumot beradi. Maqola muallifining fikricha, “Navoiy oʻz sheʼrida Bahromning qismati misolida Husayn Boyqaroni ogohlantirishga harakat qiladi. Navoiy bashoratida haq edi: Husayn Boyqaro davlati parchalanib ketdi. Temurlar sulolasi yoʻq boʻldi.” (Род.узб.лит., 1940:219)

Alisher Navoiy oʻzining sheʼriy asarlarida ham zamonaning dolzarb muammolarini hal qilishga harakat qiladi. “Sabʼai sayyor” tarkibidagi hikoyatlar faqatgina sanʼat namunasi emas, balki ijtimoiy qimmat ham mavjud asarlardir. U hech bir timsolni bejiz kiritgan emas, ularning har biri insoniy xususiyatlarning ramzidir. Dostonning oʻzi esa, feodal tuzumning barcha qorongʻu va dahshatli tomonlarini aks ettiruvchi koʻzgidir.

Natija va muhokama

Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan nashr etilgan maqolalar toʻplami nafaqat oʻz davri uchun, balki bugungi kun navoiyshunosligi uchun ham muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Alisher Navoiyning davlat arbobi va ijodkor sifatida olib borgan ishlari olimlar tomonidan jiddiy tadqiq qilingan. “Muhokamat ul-lugʻatayn”, “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub” asarlari mohiyati keng yoritilgan. Shu bilan birga, Alisher Navoiy shaxsiyati haqida muhim maʼlumotlar keltirib oʻtilgan Xondamirning “Makorim ul-axloq” asari Mixail Salye tomonidan rus tiliga tarjima ham qilingan.

Toʻplamdagi maqolalarga xos yana bir jihatni aytib oʻtishimiz joiz: Sovet jamiyati yuqori pardalarda ulugʻlangan. Masalan, A.Abdurahmonov “Alisher Navoiy besh asr oldin orzu qilgan quvnoq va baxtli hayotni Marks – Engels – Lenin – Stalinning daho taʼlimotini hayotga tatbiq etgan hamda Oʻzbekistonni Stalin nomidagi Katta Fargʻona kanalini yaratgan, yangi kommunistik jamiyat qurayotgan qahramonlarning gullagan diyoriga aylantirgan holda proletariatning gʻolib diktaturasi yaratdi” (Род.узб.лит., 1940:8) deb taʼkidlaydi.

H.Olimjon taʼrificha, “Farhod va Shirin” dostoni dunyodagi sevgi dostonlari ichida eng qaygʻulisi. Bu Oʻzbekistondagi revolyusiyaga qadar boʻlgan amirliklar davridagi yoshlarning achchiq taqdirini yodga soladi. Bu doston bugungi kunning erkin va baxtli yoshlariga amirlikning qora kunlarini eslatmoqda, oʻtmishning qora kuchlariga qarshi gʻazab va nafrat uygʻotmoqda, yangicha, socialistik munosabatlarning qimmatini taʼkidlamogʻda.

Uygʻun Navoiy haqida gapirganda Pushkin, Lermontov va Nekrasov; Shota Rustaveli, Nizomiy va Fuzuliy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz, Saʼdiy, Jomiy; Dante, Shekspir, Gyote, Geyne, Bayronlarni koʻz oldiga keltirishini aytadi. Shunday buyuk shoir uzoq yillar tan olinmaganini,

faqatgina sovet davrida tan olingani va qadrlangani, SSSR xalqlarining sevimli ijodkoriga aylanganini ta'kidlaydi. (bu fikrlar siyosiy hayotning talablari asosida keltirilgandek taassurot qoldiradi. Zamonani maqtash har bir nashrning shartli qismiga aylangan, nazarimizda)

Olim To'xtasin Jalolov Alisher Navoiyni davr muhitidan qiynalganligi, surgun qilinganligi haqida yozadi. Uning fikriga ko'ra, "Navoiy insonparvarlik, baynalmilallik, vatanparvarlik, qahramonlik, chin muhabbat, adolat, mehr-oqibat, ma'rifat o'zi yashashi kerak bo'lgan muhitga yot ekanligini tushundi. Shuning uchun ham Navoiy g'oyalari elchilari, g'azallari qahramonlari – Farhod, Shirin, Layli va Majnunlar doimo "asr ajdahosi tomonidan yutilib", halok bo'ladilar." (Род.узб.лит., 1940:220) T.Jalolov o'z maqolasida Navoiyning qayg'uli she'rlarini o'z davridan noroziligi deb hisoblaydi.

Xulosa

Yuqorida nomi keltirilgan maqolalar to'plamini tahlilga tortar ekanmiz, shunday to'xtamga kelish mumkinki, Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi yubileyi sobiq Sovet Ittifoqi miqyosida keng nishonlangan. Rus sharqshunos olimlari tomonidan Alisher Navoiy asarlarining matni asosida jiddiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularning ko'pchiligi turkiy, arabiy va forsiy tillarni yaxshi bilgan. Shu sababli Navoiy asarlarining asl nusxasi bilan ishlash ularga qiyinchilik tug'dirmagan.

Ushbu maqolalar to'plami sharqshunos hamda matnshunos sifatida Alisher Navoiy hayoti va ijodining hali ko'plab qirralarini tadqiq qilishimiz kerakligini bizga yana bir bor ta'kidlaydi. G'azal mulkinging sultoni bo'lgan adibimizning kashf etilmagan jihatlarini hali anchagina.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб. – Тошкент: Фафур Фулом, 1983. – 112б.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами: 20 томлик. XVI т. Муҳокамат ул-луғатайн ва б. – Тошкент: Фан, 2000. – 336 б.
3. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б.
4. Родоначалъник узбекской литературы/Сборник статей об Алишере Навои. Ташкент: Издательство Узбекистанского филиала Академии наук СССР, 1940. – 224с.
5. Стенографический отчет курсов-конференций по изучению творчества Алишера Навои при ССП (союза советских писателей) Узбекистана. ЎзМА. Фонд 2356, опись(рўйхат) 1, дело 79, часть I. – 136 с.
6. Эркинов А. Навоийни англаш сари. – Анқара: Акчағ, 2021. – 468-б.
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Семёнов,_Александр_Александрович

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

“ALISHER NAVOIY” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

“Alisher Navoiy” xalqaro jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Crossref.org tizimiga ham kiritiladi hamda har bir maqolaga DOI raqami beriladi.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 10-15 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- maqolalar o‘zbek, turk, tojik, rus, ingliz, fransuz tillarida qabul qilinadi;
- maqolaning tarkibiy tuzilishi IMRAD formatida rasmiylashtirilishi kerak;
- maqola Times News Roman shriftida, 12 kattalikda, 1 intervalda tayyorlanadi;
- havola(snokalar)lar katta qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi [Mo‘minov 2020: 25] shaklida keltiriladi;
- maqola tomonlari chap: 2 sm, o‘ng: 2 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqolalar plagiatga qarshi tekshiriladi;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:
Tel.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “АЛИШЕР НАВОИЙ”

Международный журнал “Алишер Навоий” включен в список ВАК Республики Узбекистан. Он также будет включен в систему Crossref.org, и каждой статье будет присвоен номер DOI.

ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Объем статьи: около 10-15 страниц;
- статьи принимаются на узбекском, турецком, таджикском, русском, английском и французском языках;
- структура статьи должна быть оформлена в формате IMRAD;
- шрифт текста – Times New Roman; размер – 12 пунктов; межстрочный интервал – 1;
- сноски приводятся в квадратных скобках с указанием фамилии автора – года издания – страницы [Мўминов 2020: 25];
- параметры страницы: слева 2 см, справа 2 см, сверху и снизу по 2 см;
- статьи проверяются на плагиат;
- в одном номере журнала публикуется только 1 статья автора.

НАШИ КОНТАКТЫ:
Тел.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

“ALISHER NAVOIY” INTERNATIONAL JOURNAL INFORMATION LETTER

“Alisher Navoiy” International Journal is included in the list of HAC of the Republic of Uzbekistan. It will also be included in the Crossref.org system, and each article will be assigned a DOI number.

REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article should be presented in 10-15 pages;
- articles are accepted in Uzbek, Turkish, Tajik, Russian, English, French;
- the structure of the article should be in the IMRAD format.
- the article should be prepared in Times New Roman font, 12 sizes, 1 space;
- references are given in parentheses in the form of the author’s name – date of publication - page [Muminov 2020: 25];
- sides of the article left: 2 cm, right: 2 cm, top and bottom: 2 cm;
- articles will be checked against plagiarism.
- only 1 article by the author is published in 1 issue of the journal.

CONTACT ADDRESS:
Phone: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru